

Date: 19th May-2025

O'QUV MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING QO'LLANILISHI

Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi

International school of finance technology

and science instituti stajor-o'qituvchisi

Elektron pochta: Xurshidyulchiboyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning qo'llanishi, ularning samaradorligi va ta'siri tahlil qilinadi. Bugungi kunda inson diqqatini chalg'ituvchi turli omillar mavjud bo'lib, bunday vaziyatda ta'limning faollashtirilgan usullari yordamida o'quvchilarda bilimga bo'lgan qiziqish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ta'lim jarayonini jonlantirishda, o'quvchilarda qiziqish va faollikni uyg'otishda interaktiv ta'lim metodlarining o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar avval o'tkazilgan ilmiy ishlar, maqolalar asosida amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: o'quv motivatsiyasi, interaktiv metodlar, ta'lim samaradorligi, talaba faolligi, innovatsion yondashuv.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN INCREASING LEARNING MOTIVATION

Annotation: This article analyzes the use of interactive methods in increasing students' motivation to study, their effectiveness and impact. Today, there are various factors that distract people's attention, and in such a situation, developing students' interest in knowledge and independent thinking through activated methods of education has become one of the most urgent issues. The role of interactive teaching methods in revitalizing the educational process and arousing interest and activity in students is incomparable. The analyses presented in this article are based on previously conducted scientific studies and articles.

Keywords: learning motivation, interactive methods, educational effectiveness, student activity, innovative approach.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: В статье анализируется использование интерактивных методов, их эффективность и влияние на повышение мотивации студентов к обучению. Сегодня существуют различные факторы, отвлекающие внимание людей, и в такой ситуации развитие у учащихся интереса к знаниям и самостоятельного мышления посредством активизированных методов обучения стало одной из самых актуальных



Date: 19th May-2025

проблем. Неоценима роль интерактивных методов обучения в оживлении образовательного процесса, пробуждении интереса и активности у учащихся. Представленные в данной статье анализы основаны на ранее проведенных научных исследованиях и статьях.

Ключевые слова: мотивация обучения, интерактивные методы, эффективность обучения, активность учащихся, инновационный подход.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning e'tiborini qaratish, ularning motivatsiyasini oshirish eng dolzar basalalardan biridir. Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib, yosh avlodning e'tibori esa tez-tez o'zgarib borayotgan bugungi kunda an'anaviy ta'lim metodlarining samaradorlik ko'rsatgichlari tobora pasayib bormoqda. Endilikda o'qitish jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda ta'limga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish bo'lib, bunday maqsadlarga erishishda interaktiv metodlardan foydalanishni talab etadi. Interaktiv metodlar – bu o'quvchilarni faollikka undovchi, ular orasida muloqot va hamkorlikni kuchaytiruvchi, o'quv jarayonini jonlantiruvchi usullardir (Zainuddin & Attaran, 2016). Bu orqali o'quvchilar darslarda faol ishtirokchiga aylanadi. Ular darslarda muammoli vaziyatlarga yechim izlash, fikr almashish, bahslashish orqali o'zlarining dunyo qarashlarini kengaytiradilar. Bu esa ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Interaktiv metodlar, shu bois, ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Motivatsiya psixologiyada shaxsni harakatga keltiruvchi ichki va tashqi omillar yig'indisi sifatida izohlanadi (Ryan & Deci, 2000). Bu omillar shaxsning maqsad sari intilishiga va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga undaydi. Ichki motivatsiya – bu shaxsning faqat o'zining bilimga bo'lgan qiziqishi va o'rganishga nisbatan ichki ehtiyoji bilan vujudga keladi. Tashqi motivatsiya esa tashqi omillar hisoblanib, ular baho, mukofotlar natijasida yuzaga keladi. Ta'lim jarayonida har ikki turdagi motivatsiya ham muhim rol o'ynaydi, lekin ichki motivatsiyaning kuchliroq bo'lishi o'quvchilarning mustaqil o'rganishiga va faolligiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish asosiy maqsadlardandir. Bu borada interaktiv metodlar asosiy sahnaga chiqadi. Prince (2004) ta'kidlanganidek, interaktiv metodlar o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar faqat bilim egallamay, balki uni qo'llash, tahlil qilish va ijodkorlik bilan yondashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

John Dewey(1938) o'zining konstruktivistik yondashuvi doirasida o'qitish jarayonini real hayotiy tajriba asosida olib borishni taklif qilgan. Uning fikricha, bilimlar o'quvchining faol ishtiroki orqali mustahkamlanadi. Bu yondashuvda interaktiv metodlar katta o'rin tutadi.



Date: 19th May-2025

Shuningdek, Vygotsky (1978) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasida bilim olish jarayoni ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'langanligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, muloqot orqali nafaqat bilim, balki motivatsiya ham ortib boradi. Vygotsky "yaqin taraqqiyot zonasi" tushunchasini joriy etgan bo'lib, o'quvchi murakkab topshiriqlarni boshqalarning ko'magida o'zlashtiradi va bu jarayonda tashqi motivatsiya ichki motivatsiyaga aylanishi mumkin.

Umumiy tahlil va xulosa. Tahlil natijalari Ryan va Deci (2000) tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasi bilan to'laqonli mos kelishini anglash mumkin. Mazkur nazariyaga ko'ra, shaxsning ichki motivatsiyasi uch asosiy psixologik ehtiyoj – mustaqillik, malaka va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari qondirilgan shakllanadi. Interaktiv metodlar aynan shu ehtiyojlarni rag'batlantiruvchi didaktik yondashuv hisoblanadi. Birinchidan, interaktiv metodlar o'quvchiga mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, muammoli vaziyatlar va loyiha asosida o'qitish metodlari murakkab vazifalarni mustaqil hal qilishga urinadi. Bunday tajriba o'quvchilarda o'zini malakali shaxs sifatida his qilishga undaydi. Uchinchidan, guruhviy ishlash, muloqot va debatlar fikr almashish va bir-birini tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning ijtimoiy aloqadorlik hissini rivojlantiradi.

Shuningdek, Prince (2004) tomonidan faol o'qitish metodlarining samaradorligi empirik tadqiqotlar orqali asoslab berilgan. Unda bu yondashuvlarning motivatsiyaga ijobiy ta'sirini yana bir bor tasdiqlangan. Interaktiv metodlar nafaqat motivatsiyani oshiradi, balki o'quvchilarda yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini (analiz, sintez, baholash) faollashtiradi. Bu esa ta'lim jarayonining chuqurlashtirilgan va mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar orqali shuni xulosa qilish mumkinki, interaktiv o'qitish metodlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim va samarali hisoblanadi. Ular o'quvchilarni passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu yondashuv orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faolligi ortadi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarni hal qilish, guruhviy muhokama, loyiha va debat kabi metodlar bilimni chuqurroq o'zlashtirishga, balki uni amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. Macmillan.
2. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education*, 93(3), 223-231. <https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x>
3. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and new directions. *Contemporary Educational Psychology*, 25(1), 54-67. <https://doi.org/10.1006/ceps.1999.1020>
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.



Date: 19th May-2025

5. Zainuddin, Z., & Attaran, M. (2016). Malaysian students' perceptions of flipped classroom: A case study. *Innovations in Education and Teaching International*, 53(6), 660-670. <https://doi.org/10.1080/14703297.2015.1102079>

